

Guliston shahri

24» abryet 2023 yil

“O‘zbekiston pochta” AJ Sirdaryo filiali bundan buyon “Bajaruvchi” deb ataladigan, Ustav asosida xarakat qiluvchi Bosh direktor F.Islamov bir tomondan va bonus boi-cu nomidan, bundan buyon “Buyurtmachi” deb ataladigan, uzal asosida ish yurituvchi b. bybonusob ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar va imzoladilar.

### I. Shartnoma shartlari

1.1. Ushbu shartnomaga binoan “Buyurtmachi” turli xil xat-xabarlarini, xabarnomalarini, chaqiruv qog‘ozlarini va boshqa yuridik hujjatlarini (bundan buyon matnda pochta jo‘natmalari deb ataladi) elektron shaklda Yagona milliy tizim orqali taqdim etishni, ushbu pochta jo‘natmalarda oluvchilarning manzil rekvizitlari “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish” Qoidalarida belgilangan tartibda ko‘rsatilishini, elektron shaklda kelib tushgan pochta jo‘natmalarini qog‘oz ko‘rinishida chop etish, uni konvertga joylashtirish va oluvchilarga yetkazib berish xizmatlari uchun xaq to‘lash majburiyatini oladi.

1.2. “Bajaruvchi” Yagona milliy tizimdan elektron shaklda kelib tushgan pochta jo‘natmalarini oluvchining manziliga yaqin bo‘lgan pochta aloqasi bog‘lamasida qog‘oz ko‘rinishida chop etib, uni maxsus konvertga joylashtirgan holda oluvchilarga belgilangan nazorat muddatlarida yetkazib berishni, pochta jo‘natmalari yetkazib berilganligi yoki yetkazib berilmaganligi sabablari va boshqa ma‘lumotlarni muntazam ravishda Yagona milliy tizimga kiritilib borilishini o‘z zimmasiga oladi.

### II. Tomonlar huquqi va majburiyatlari

#### 2.1. “Buyurtmachi”ning huquqlari:

“Bajaruvchi”dan pochta jo‘natmalarini belgilangan nazorat muddatlarida oluvchilarga yetkazib berishni;

har oyda jo‘natilgan va yetkazib berilgan, shuningdek oluvchilarga ma‘lum bir sabablarga ko‘ra yetkazib berilmagan pochta jo‘natmalar bo‘yicha hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etishni;

pochta jo‘natmalari yetkazib berilganligiyoki berilmaganligi to‘g‘risida ma‘lumotlarni Yagona milliy tizimga o‘z vaqtida kiritilib borilishini talab qilish.

#### 2.2. “Buyurtmachi”ning majburiyatlari:

“Bajaruvchi”ga pochta jo‘natmalarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020 yil 9 oktyabrdagi 637-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan yuborish;

pochta jo‘natmalarida oluvchilarning manzil rekvizitlari to‘liq yozish;

mazkur shartnomaning 5.3-bandida belgilangan tartibda “Bajaruvchi”ning xizmati uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish;

xar oyda bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi dalolatnoma va hisob-fakturani “Bajaruvchi” tomonidan topshirilgan vaqtdan boshlab 5 ish kuni ichida imzolash va ushbu hujjatlarning bir nusxasini “Bajaruvchi”ga qaytarish;

agar bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi dalolatnoma va hisob-fakturaga e‘tirozlar mavjud bo‘lsa, uning sabablarini ko‘rsatgan holda “Bajaruvchi”ga 5 ish kuni ichida qaytaradi. Aks holda, dalolatnoma qabul qilingan va xizmat ko‘rsatilgan deb hisoblanadi.

2.3. Buyurtmachining xatosi bilan tizimga elektron shaklda kelib tushgan pochta jo‘natmalari qog‘oz ko‘rinishida chop etilib va (yoxud) konvertga joylashtirilgan, lekin adresatga yetkazib berish uchun aloqa bo‘limiga yuborilmagan taqdirda faqat sarf etilgan xarajatlar “Bajaruvchi”ning kalkulasiyasiga ko‘ra “Buyurtmachi” tomonidan to‘liq qoplab beriladi.

Bunda, Buyurtmachining xatosi bilan pochta jo‘natmalari elektron shaklda tizimga kelib tushganidan so‘ng, “Buyurtmachi” ko‘pi bilan 2 soat ichida “Bajaruvchi”ni xabardor qilishi shart.

6/20/23

**2.4.** Buyurtmachining xatosi bilan tizimga elektron shaklda kelib tushgan pochta jo'natmalari qog'oz ko'rinishida chop etilib, (yoxud) konvertga joylashtirilgan hamda adresatga yetkazib berish uchun aloqa bo'limiga yuborilgan taqdirda "Buyurtmachi" tomonidan to'lov shartnomada ko'rsatilgan narxda to'liq amalga oshiriladi.

**2.5. "Bajaruvchi"ning huquqlari:**

"Buyurtmachi"dan ushbu shartnomada belgilangan tartibda va miqdorda taqdim etilgan xizmatlar uchun to'lov va yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab qilish;

pochta jo'natmalarni yetkazib berish uchun zarur bo'lgan manzil ma'lumotlari yetarli bo'lmagan yoki noto'g'ri ko'rsatilgan taqdirda "Buyurtmachi"dan pochta jo'natmalarini qabul qilishdan bosh tortish (Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining 83-bandi);

agar pochta jo'natmasida ko'rsatilgan manzil rekvizitlarga binoan oluvchining shaxsan o'ziga topshirishning ilojisi bo'lmasa, u holda oluvchining voyaga yetgan oila a'zolariga topshirish.

**2.6. "Bajaruvchi"ning majburiyatlari:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020 yil 9 oktyabrdagi 637-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan pochta jo'natmalarini qabul qilish;

pochta jo'natmalari Yagona milliy tizimga soat 12:00 gacha kelib tushgan taqdirda, shu kunning o'zida chop etib, tegishli manzillar bo'yicha yuborish, soat 12:00 dan keyin yoki dam olish va bayram kunlari kelib tushgan taqdirda, keyingi ish kuni chop etib, tegishli manzillarga yuborish;

pochta jo'natmalarini oluvchilarga belgilangan nazorat muddatlarida, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlari hamda Toshkent shahrida – D+2 kun, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi tuman (shahar) markazlarida – D+3 kun, Boshqa aholi yashash punktlarida – D+4 kun ichida yetkazib berish (*D-pochta jo'natmalarni Yagona milliy tizim orqali qabul qilingan kun, nazorat muddatlariga dam olish va bayram kunlari kirmaydi*);

har oyda jo'natilgan va yetkazib berilgan, shuningdek oluvchilarga ma'lum bir sabablarga ko'ra yetkazib berilmagan va qaytarilgan pochta jo'natmalar bo'yicha hisobotlarni o'z vaqtida "Buyurtmachi"ga taqdim etish;

hisobot oyidan keyingi o'zining 10-sanasi gacha bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va hisob-fakturani "Buyurtmachi"ga taqdim etish;

Yagona milliy tizimga pochta jo'natmalarni yetkazib berilganligi yoki yetkazib bermaganligi to'g'risida ma'lumotlarning o'z vaqtida kiritib borish;

oluvchi yoki oilaning katta yoshdagi a'zolari bo'lmaganligi sababli ko'rsatilgan pochta jo'natmalarini topshirishning imkoni bo'lmaganda abonent pochta qutichasiga yoki abonent pochta qutisi bo'lmagan taqdirda oluvchining eshigiga 22-shakl xabarnomani qoldirish (Ushbu xabarnoma pochta jo'natmalarini olish uchun pochta aloqasi ob'ektiga oluvchini taklif etish maqsadida qoldiriladi);

oluvchi 22-shakl xabarnomasiga asosan pochta aloqasi ob'ektiga kelmagan taqdirda, o'n kun muddat davomida pochta aloqasi ob'ektida saqlanadi. Agar o'n kun muddat ichida oluvchi pochta jo'natmasini olish uchun pochta aloqasi ob'ektiga kelmasa, pochta jo'natmasi yetkazib berilmaganlik sababi ko'rsatilgan holda tizim orqali buyurtmachiga qaytariladi

pochta jo'natmalarini oluvchilarga yetkazib berishning imkoniyati bo'lmagan hollarda yetkazib berilmaganlik sabablarini ko'rsatgan holda 20-shakl ma'lumotnomani rasmiylashtirish:

1 – oluvchi vafot etgan;

2 – oluvchi (oilasi) ko'rsatilgan manzil bo'yicha yashamaydi yoki vaqtincha yashamaydi;

3 – manzil to'liq (uyning raqami, aholi punkti, ko'cha nomi va boshqalar) ko'rsatilmagan;

4 – oluvchi pochta jo'natmasini olishdan voz kechdi;

5 – oluvchi uyida bo'lmagan, uyiga xabarnoma qoldirilgan, pochta jo'natmasini olish uchun pochta aloqasi ob'ektiga kelmagan.

6 – ko'rsatilgan manzil aniqlanmadi;

7 – ko'rsatilgan manzil bo'yicha korxonalar topilmadi.

Qog'oz ko'rinishida chop etilgan pochta jo'natmalarni qabul qiluvchilarga yetkazib berishning imkoniyati bo'lmagan hollarda pochta jo'natmalari pochta aloqasi bog'lamasida olti oy davomida saqlanadi.

Saqlash muddati tugaganidan so'ng hujjatlar ularni jo'natgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning talablariga binoan qaytariladi, talab qilib olinmagan xat-xabarlar va hujjatlar tegishli dalolatnoma tuzilib, yo'q qilinadi.

### III. Pochta jo'natmalari siri

3.1. Bajaruvchi yagona milliy tizimga kelib tushgan pochta jo'natmalari sirini saqlash majburiyatini oladi.

3.2. Yagona milliy tizimga kelib tushgan pochta jo'natmalarini sirini saqlash maqsadida "Bajaruvchi"ga quyidagilar taqiqlanadi:

boshqa shaxsga pochta jo'natmalari haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek adresatlarning manzillari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi;

pochta jo'natmalari va ularning mazmuniga (joylanmasiga) doir ma'lumotlarni bilib olishi;

pochta jo'natmalarining mazmuni (joylanmasi) to'g'risida boshqa shaxsni xabardor qilishi taqiqlanadi.

### IV. Tomonlarning o'zaro aloqalari

4.1. "Buyurtmachi" pochta jo'natmalarini oluvchining manzil rekvizitlari yozilgan 103-shakl ro'yxat asosida Yagona milliy tizimi orqali yuboradi.

4.2. "Bajaruvchi" Yagona milliy tizimga elektron shaklda kelib tushgan pochta jo'natmalarini qog'oz ko'rinishda chop etadi, uni maxsus konvertga joylashtiradi va oluvchiga yetkazib beradi.

4.3. Pochta jo'natmasida oluvchining manzil rekvizitlari "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish" Qoidalarining 83-bandi talablariga muvofiq bo'lishi va quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- oluvchining nomi (jismoniy shaxslar uchun – familiyasi, ismi, otasining ismi, yuridik shaxslar uchun – yuridik shaxsning to'liq nomi);

- viloyat nomi;

- tuman nomi;

- ko'chaning nomi, uy raqami, xonadon raqami;

- pochta indeksi.

Manzilda qisqartirilgan nomlar, shuningdek manzilga doir bo'lmagan belgilar bo'lmashligi kerak.

4.4. Pochta jo'natmasini oluvchiga imkon qadar yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida "Buyurtmachi" ixtiyoriy ravishda oluvchining manzil rekvizitlariga uning telefon raqamini ham ko'rsatishi mumkin.

4.5. "Buyurtmachi" manzil rekvizitlarining to'g'ri yozilganligiga javobgar.

4.6. Pochta jo'natmalarini qabul qiluvchilarga qayta yetkazib berish jarayonida yangi 103-sh. ro'yxat tuziladi va "Buyurtmachi"ning birinchi 103-sh. ro'yxatida belgi qo'yiladi, belgilangan tariflarga muvofiq haq to'lanadi.

### V. Narxlar va to'lash tartiblari

5.1. Shartnomaningsummasi \_\_\_\_\_ so'mni tashkil qiladi.

T/r	Xizmatning nomi	Miqdori	Narxi QQS bilan	Jami QQS bilan
1.	Pochta jo'natmalarini qog'oz ko'rinishida chop etish, uni konvertga joylashtirish va oluvchilarga yetkazib berish (uch dona bosma varaq)	80	6 800 so'm	544000

5.2. Agar bosma varaq soni uchdan ko'p balsa, keyingi har bir varaq uchun 200 so'm qo'shiladi.

5.3. "Buyurtmachi" ushbu shartnoma tuzilgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni davomida "Bajaruvchi"ning hisob raqamiga shartnoma summasining 30 % miqdorida oldindan to'lovni amalga oshiradi.

5.4. "Bajaruvchi" har oyning 10-sanasiga qadar "Buyurtmachi"ga bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va hisob-fakturani taqdim etadi.

5.5. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va hisob-fakturasi taqdim etilgandan so'ng "Buyurtmachi" tomonidan 10 ish kuni ichida amalga oshiriladi.

5.6. "Bajaruvchi"ning aybi bilan xizmatlarni ko'rsatish imkoni bo'lmasa "Bajaruvchi" oldindan to'langan mablag'ni qaytarib berishni o'z zimmasiga oladi.

5.7. "Buyurtmachi" taqdim etilgan bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va hisob-fakturani 5 ish kuni ichida imzolashi yoki imzolashni asosli rad etishi kerak.

5.8. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"dan bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomaga berilgan e'tirozlarni olgan kundan boshlab 5 (uch) ish kun ichida ko'rib chiqadi. Agarda berilgan e'tirozlar bilan rozi bo'lsa "Bajaruvchi" taqdim etgan e'tirozlarni inobatga olgan holda, bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomani tayyorlaydi va "Buyurtmachi"ga taqdim etadi.

5.9. Agar "Bajaruvchi" taqdim etilgan e'tirozlarga rozi bo'lmasa, har bir Tomonning vakillaridan iborat bo'lgan ishchi gurux tuziladi va ular 5 (besh) ish kuni ichida har bir Tomondan bajarilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqishi lozim. O'rganish natijasiga ko'ra har ikki tomon uchun bajarilishi lozim bo'lgan yakuniy hulosa chiqariladi.

5.10. Bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va hisob - faktura imzolanganidan so'ng, "Buyurtmachi" 10 (o'n) ish kuni ichida "Bajaruvchi" bilan o'zaro hisob.- kitoblarni amalga oshiradi.

5.11. "Bajaruvchi" tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning tasdiqlanadigan narxlar (tariflari) o'zgargan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ni o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yoki boshqa aloqa vositalari yordamida xabardor qiladi. Bunday hollarda Tomonlar ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzadi.

5.12. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun mazkur shartnomaning 5.1-bandida belgilangan summadan oshgan summani "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga to'lab berish majburiyatini oladi.

## VI. Shartnomaning bajarilishi, o'zgartirilishi va bekor qilinishi

6.1. Shartnomaning shartlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq ravishda rasmiylashtirilishi kerak. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan taqdirda, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

6.2. Fuqarolik kodeksida, boshqa qonunlarda yoki mazkur shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqat quyidagi hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:

a) ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzsa;

b) Fuqarolik Kodeksi, boshqa qonunlar va shartnomada nazarda tutilgan o'zga hollarda.

Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi.

Bir taraf shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bosh tortib, qonun yohud taraflarning kelishuvida bunga yo'l qo'yilgan, shartnoma tegishli boshqacha bekor qilingan yoki o'zgartirilgan hisoblanadi.

6.3. Shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat yozma ravishda tuzilgan va Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.

6.4. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shartnomaga kiritilgan barcha o'zgarish va qo'shimchalar ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

6.5. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish sanasi hisob-fakturani taqdim etish sanasi va yetkazib berilgan pochta jo'natmalarining haqiqiy hajmlari to'g'risidagi tegishli oylik solishtirish dalolatnomalarini imzolash sanasi hisoblanadi.

## VII. Korrupsion holatlar

7.1. "Buyurtmachi" ham, uning xodimlari yoki vakillari ham "Bajaruvchi"ning biron bir xodimi yoki vakiliga sovg'alar va boshqa ko'ngilochar narsalar, mukofotlar yoki chegirmalar bermaydi (qabul qilmaydi). Bundan tashqari, na "Buyurtmachi", na uning xodimlari, vakili ushbu Shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi"ning vakili bo'lish vakolatiga ega bo'lmagan har qanday xodimi bilan, "Bajaruvchi" ham "Buyurtmachi"ning vakili bo'lish vakolatiga ega bo'lmagan har qanday xodimi bilan taraflar bir-birini oldindan yozma ravishda xabardor qilmasdan hech qanday Mazkur shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzmaydilar.

## VIII. Tomonlarning mas'uliyati

8.1. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ning xizmatlarini o'z vaqtida, shartnomada belgilangan muddatlarda to'lash va yakuniy to'lovning to'liqligi uchun javobgardir.

“Buyurtmachi” tomonidan “Bajaruvchi”ga, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun o‘z vaqtida to‘lovlar amalga oshirilmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 % miqdorda penya to‘laydi, biroq bu kechikkan summaning 50 % dan oshmasligi kerak.

8.2. “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ning oldida pochta jo‘natmasini olish xuquqiga ega bo‘lgan oluvchilarga o‘z vaqtida va to‘liq yetkazib berish uchun javobgardir.

“Bajaruvchi”ning xodimlarining aybi bilan pochta jo‘natmalar o‘z vaqtida yetkazib berilmagan taqdirda “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5% miqdorda penya to‘laydi, biroq bu kechikkan summaning 50 % dan oshmasligi kerak.

8.3. Tomonlarning shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

### IX. Fors-major

9.1. Agar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo‘lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong‘in, sel, do‘l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta‘sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

9.2. Fors-major holati mavjud bo‘lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko‘rsatgan holda yozma ravishda aloqa vositalari (telefon raqami, ijtimoiy tarmoqdagi profillar va rasmiy sahifalar) orqali ogohlantirishi lozim.

### X. Munozaralarni hal qilish

10.1. Shartnomani bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish paytida Tomonlar o‘rtasida yuzaga kelgan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash, odatda muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi.

10.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda hal qilish to‘g‘risida iqtisodiy sudga murojaat qilish huquqiga ega.

### XI. Yakuniy qoidalar

11.1. Mazkur shartnoma “Tomonlar”ning vakolatli shaxslari imzolagan, Moliya vazirligining G‘aznachiligi ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi va 2023 yil “31” dekabrga qadar amal qiladi.

11.2. Shartnoma ikki nusxada, har bir Tomon uchun bittadan nusxada tuziladi. Shartnomaning ikkala nusxasi ham teng yuridik kuchga ega.

### Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari

“BUYuRTMACHi”:

Камбозарликки Исцисор-  
Турини ва Бонглик бон-си  
ШХР - 10002186024401710912009400/  
МНН - 201775991. МФР - 00014  
7ХР - 23402000300100001010  
Мартиний Банк

  
  
P.P. Mambetov  
17.08.2023г.

“BAJARUVChI”:

“O‘ZBEKISTON POCHTASI” AJ  
FILIALI  
Sirdaryo filiali GuListon sh.  
Navoiy shox ko‘chasi 45 uy  
Tel: 95 510-01-93, 225-14-20  
x/r:20210000600155266064  
ТИФ «Миллий банки» АЖ  
МФО 00450 INN 200833833

  
Direktor  
